
G'alla - 2022 yil

Tumanimiz fermer xo'jaliklari g'alla yer maydonlaridagi bug'doy yetilib, MMTPlar hududlarida birin-ketin o'rim jarayoni ketmoqda.

Bugun To'da MMTPdagi «Hosil siri» fermer xo'jaligining bug'doy hosilini yig'ish uchun kombayn o'rimga tushdi. Xo'jalik rahbari Bobur Sodiqjonov 31 gektar yerda bug'doy parvarishlab, 137 tonna don topshirish shartnoma rejasini tuzgan. - Bug'doylarimiz har yilgi hosilga qaraganda yaxshi bo'ldi, - deydi fermer. - Don topshirish shartnoma rejasini ortig'i bilan bajarishni niyat qilganmiz. - Har bir kun g'animat, g'alladan bo'shagan yerlarimizni peshma-pesh somonini yig'ishtirib, takroriy ekinga tayyorlayapmiz.

2022-06-10 18:51:42